

MUZEYSHUNOSLIK ISTIQBOLLARI

Sh.K.O'rinov

BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o`qituvchisi

S.Sadullayeva

BuxDU San'atshunoslik fakulteti MSM guruh 3-kurs talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lgan muzeylarning bugungi kundagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, madaniyat sohasining bir bo'g'ini bo'lgan muzey sohasini davlat siyosati darajasida rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Milliy an'ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o'rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etishga katta e'tibor qaratila boshlanganligi to'g'risida mulohazalarga ega bo'liniladi.

Kalit so'zlar: muzey, madaniyat, jamg'arma, ICOM, yodgorlik.

Har qanday davlat taraqqiyot sari intilar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar va qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy. Ayniqsa bu borada muzeylarning o'rni beqiyosdir. Chunki muzeylar o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lib amaldagi qonun-qoidaga muvofiq ravishda saqlanadi va namoyish qilinadi. Muzeylar — tarixning sirli xilqatlarini o'zida mujassam etgan holda xalqlar madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi ko'prik hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqning ma'naviy dunyosini boyitish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda ham muzeylarning o'rni beqiyos. Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganish, ularni targ'ib etish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeylar ma'naviy va ma'rifiy ilm o'chog'i sifatida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Ularning zaxiralarini doimo boyitib borish, to'plangan muzey ashyo va kolleksiyalarini kelajak avlodlarga bus-butun holatda yetkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi. Ushbu dargohda o'z kasbining fidoiy insonlari faoliyat yuritadilar. Ular tomonidan yaratiladigan har bir ekspozitsiya o'zining maftunkorligi, tarixiy ahamiyati va judayam boy tarixiy yodgorliklarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Muzeylar ajdodlardan meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina. Yillar davomida boyib, to'lib boraveradigan bu xazina faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmay, uzoq tarix sahifalaridan so'zlovchi bebaho kitob hamdir.

O'zbekiston 1993-yilda Xalqaro "ICOM" tashkilotiga a'zo bo'lgach, soha bo'yicha jahondagi eng ilg'or tajribalarni o'rganib, o'ziga xos milliy an'analar festivaliga asos soldi. Yillar o'tgan sayin shaklan va mazmunan takomillashib, boyib borayotgan mazkur festivalning respublikamiz miqyosida o'zagcha bayramona ruhda o'tkazilishi muzeylar ijodiy faoliyatining yangi qirralari namoyon bo'layotganidan darak beradi. Aynan 18 may kuni yurtimizdagi barcha muzeylarning tomoshabinlarga bepul xizmat ko'rsatishi, maxsus ko'rgazmalar va

teatrlashtirilgan tomoshalarning yuksak saviyada tashkil etilishi esa bayram shukuhini oshiribgina qolmay, yosh-u kekxa tomoshabinlarga bir olam zavqu-shavq hadya etishi bilan ham e'tirofga molikdir. Har bir muzey o'zining yo'nalishi, eksponatlari bilan o'ziga xos. Xususan, O'zbekiston tarixi davlat muzeyida xalqimizning mustaqillikkacha hamda undan keyingi davr tarixini qiyosiy jihatdan tomosha qilib hayajonga tushasiz. O'zbekiston Davlat San'at muzeyida esa o'zbek xalqining bebaho va betakror san'at asarlarini hayrat hamda havas ila tomosha qilib, qalblarimiz iftixor, ko'ngillarimiz g'urur tuyg'ulariga to'lishi shubhasiz.

Poytaxtimizga tashrif buyurgan mehmon sayohati davomida, albatta, Temuriylar tarixi Davlat muzeyida ham bo'ladi. Ushbu muhtasham majmuada Amir Temur va temuriylar davri tarixi, madaniyati, san'ati bilan yaqindan tanishish mumkin. Eksponatlar ajdodlarimizning ulkan salohiyatidan so'zlaydi. O'zbekiston tarixi davlat muzeyidagi osori-atiqalar esa o'zbek davlatchiligi tarixining naqadar qadimiyligi va yuksakligi to'g'risida so'zlaydi, qolaversa, har bir davrga oid ashyolar betakrorligi bilan kishida hayrat tuyg'usini uyg'otadi. Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi ko'rgazmalari Vatanimiz mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyi farzandlar to'g'risida ma'lumot beradi. Bu muzey yosh avlod ongida istiqloq ne'matining naqadar bebaho va yuksak ekanligi, uning qadriga yetish kerakligi haqida yanada teran fikr uyg'otadi. Termiz arxeologiya muzeyida saqlanayotgan arxeologik topilmalar ham noyobligi, ilmiy tadqiqotlar uchun manba bo'la olishi bilan qadrlidir. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi istiqloq yillarida mamlakatimiz sportchilarining eng nufuzli xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritgan ulkan muvaffaqiyatlari to'g'risida keng ma'lumot yetkazadi. O'zbekiston xalq amaliy san'ati, O'zbekiston davlat san'at muzeylaridagi eksponatlar xalqimizning boy hunarmandchilik xazinasini, o'ziga xos tasviriy san'at asarlari, ularning janrlarini taramum etadi. Qadimiy shaharlarimizdagi ochiq osmon ostidagi muzeylar esa dunyoning turli tomonlaridan kelayotgan sayyohlarni hayratda qoldirmoqda va ularning oqimi yildan-yilga xalqaro darajada muzeylarimizga bo'lgan qiziqish ortib boryapti. Eng muhimi, mavjud muzeylarning hammasida o'z ishining ustalari, tarixiy va zamonaviy bilimlarni egallagan bilimdon mutaxassislar faoliyat olib boradi. Bu esa, xalqimizning o'tmishga, tarix va madaniy merosga bo'lgan hurmat va ehtiromini yanada oshirishga, moddiy va ma'naviy boyliklarimizni ko'z qorachig'idek asrashga da'vat etuvchi yangi ijodiy imkoniyatlar eshiklarini ochib bermoqda. Zero, har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, hamisha tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar hamda qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy. Bu borada esa muzeylarning o'rni beqiyos. Ular uzoq o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimga solingan yig'indisi ekani bilan ham qimmatlidir.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhasida bo'lgani kabi madaniy sohada ham tub burilish yasadi. Jumladan, milliy an'ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o'rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu madaniyat maskanlari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina bo'lib, u yillar davomida boyitilib, tarixdan meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida

yaratilgan san'at asarlari saralanib, muzeylardan joy olib, umuminsoniy boylikka aylantirilmoqda. Bugungi kunda muzeylarimizga katta ahamiyat qaratilmoqda, Prezidentimiz tashabbusi bilan 10 yillik davlat dasturini qabul qilinganligi, ya'ni 2017-2027-yillar davomida yurtimizdagi barcha muzeylarni rekonstruksiya qilish, qayta ta'mirlash va ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash aynan madaniyat sohasidagi bugungi kun dolzarb masalalaridan biri edi. Yuksak e'tibor tufayli ko'plab muzeylar bunyod etildi, mavjudlarining ishi esa zamon talablari darajasida yo'lga qo'yilib, muzey-qo'riqxonalar tashkil qilindi. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi kabi o'nlab maskanlar barpo etilgani va Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi ochiq osmon ostidagi muzeylar qaytadan ta'mirlangani fikrimiz tasdig'idir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-may kuni «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Ushbu qarorni qabul qilishdan maqsad — mamlakatdagi muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek, muzeylarda o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, birinchi va ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish, muzey to'plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosni keng targ'ib qilishdan iborat.

Muzeylarda xizmatlar sohasini kengaytirish maqsadida 2022 yil 1 iyuldan boshlab:

- davlat muzeylariga har kuni soat 22:00 gacha tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish huquqi beriladi, shuningdek, zaruratga ko'ra, davlat muzeylari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tungi ish vaqti muddatlarini belgilashi mumkin;

- pulli xizmatlar ko'rsatishda ishtirok etgan muzey xodimlariga qo'shimcha to'lovlar to'lanadi va ular moddiy rag'batlantiriladi. Qo'shimcha to'lovlar to'lash va moddiy rag'batlantirish tartibi muzeylar tomonidan ularning yuqori turuvchi organi bilan kelishgan holda belgilanadi;

- davlat muzeylariga ularda tashkil etiladigan xizmatlar uchun Madaniy meros agentligi bilan kelishgan hamda bozor konyunkturasini hisobga olgan holda, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida qo'shimcha xodimlarni jalb etishga ruxsat beriladi.

- Davlat muzeylari tomonidan xizmatlarni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari, muzeylarning budjetdan tashqari mablag'lari, Madaniy meros jamg'armasi mablag'lari, tijorat banklarining kreditlari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

- Shuningdek, Toshkent shahar hokimligi tomonidan Turkiyaning malakali kompaniyasini jalb etgan holda 2022 yil 1 noyabrga qadar jahonning mashhur muzeylaridagi eng ilg'or tajribalarni qo'llagan holda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston davlat tabiat muzeyi binolarini zamonaviy rekonstruksiya qilish, jihozlash, raqamlashtirish va yangi ekspozitsiyalarini yaratish hamda ularda xizmatlar ko'rsatish sohasini namuna sifatida tayyorlayotgani qo'shimcha qilingan. Xarajatlar Toshkent shahri shahar budjeti mablag'lari va uning qo'shimcha manbalari hisobidan moliyalashtiriladi.

Muzeylar faoliyati sohasida ilmiy tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2023-yildan boshlab:

- har ikki yilda bir marta may oyining ikkinchi o‘n kunligida “Muzeyshunoslik va arxeologiya tadqiqotlari: dolzarb muammolar va zamonaviy yechimlar” xalqaro forumi hamda uning doirasida ilmiy-amaliy konferensiya, “Buyuk ipak yo‘li” tadqiqotlari” ko‘p jildli katalog taqdimoti, ko‘rik-tanlov, ko‘rgazma-savdolar, teatrlashtirilgan konsert-tomosha dasturlari o‘tkaziladi;

- har yili muzeylarga ajratiladigan Davlat byudjeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan muzeylar sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarining kamida 10 nafarini chet elga malaka oshirish va tajriba almashish uchun yuborish majburiy yo‘lga qo‘yiladi;

- har yili kamida 2 ta madaniy meros sohasidagi tashkilot, shu jumladan, muzey hamda 100 nafar mutaxassisga Madaniy meros jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Xalqaro muzeylar kengashiga (ICOM), Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish xalqaro kengashiga (IKOMOS) a‘zolik badalini to‘lab berish amaliyoti joriy etiladi.

Bundan ko‘zlangan maqsad esa O‘zbekiston san‘atining jahon adabiy va madaniy muhitiga integratsiyasi, muzeylarimizdagi tarixiy eksponatlarning o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, buyuk allomalar hayoti va faoliyatida tutgan o‘rni hamda xalqaro maydonda mamlakatning ijobiy imijini mustahkamlashga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish va muzey to‘planlaridagi boy tarixiy hamda madaniy merosimizni zamonaviy san‘at platformasida keng targ‘ib qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yangi O‘zbekiston gazetasi 16-avgust 2021-yildagi soni
2. Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.05.2022 yildagi PQ-261-son
3. Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.06.2018-yildagi 458-son
4. Xs.uz - “Madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi”
5. Fayziyev T., Sobirjonova D., Sulaymonov B. Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish (ma‘ruzalar matni). T.: 2002.
6. 16. Xaydarov A. Madaniyat va san‘at sohasini boshqarish asoslari. - Toshkent. G‘.G‘ulom . 2016.
7. Haydarov A. Harakatlar strategiyasi va ma‘naviy yuksalish. - Toshkent: G‘.G‘ulom .2018.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 avgustdagi “Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzuidagi suhbat.
9. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. - 2022. - T. 3. - №. 4. - C. 370-376.

10. Orinov S. K., Qodirova V. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O'RGANISHDA "AVESTO" NING O'RNI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2022. - C. 83-86.

11. Orinov S. K., Boboqulova S. MADANIYAT VA SAN'AT BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2022. - C. 78-82.

12. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2022. - C. 68-72.

13. Orinov S. K., Abdusalomova H. TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2022. - C. 766-770.